

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TO‘Y MAROSIMLARI LEKSIKASINING NAZARIY ASOSLARI

Abdurahmonova Munisa Navzod qizi

Toshkent Ijtimoiy Innovatsion Universiteti magistranti

Email : Munisa678@icloud.com

*“To‘y — bayram,
ammo haqiqiy go‘zallik kundalik hayotda:
bir-birini tinglash,
tushunish va har kuni
muhabbatni mustahkamlashdadir.”*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi urf-odatlarini ifodalovchi leksik birliklar tahlil qilinadi hamda ularning milliy-madaniy xususiyatlari o‘rganiladi. Turli xalqlar madaniyatini aks ettiruvchi ushbu birliklar tili va madaniyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi. O‘zbek va ingliz tillaridagi urf-odatlar, marosimlar, an‘analarning leksik birikmalari lisoniy vositalar orqali qanday ifoda etilishi va ularning semantik tarkibi tadqiq qilinadi. Shuningdek, ushbu leksik birliklarning tarjima qilinishi va boshqa madaniyatga o‘tkazilishi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar ko‘rib chiqiladi. Tezis urf-odatlar va madaniyatlarni o‘zaro tushunish va madaniyatlararo muloqotga qo‘shadigan hissasini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, ingliz tili, urf-odatlar, milliy-madaniy xususiyatlar, leksik birliklar, tarjima, madaniyatlararo muloqot, semantika.

Abstract: This article analyzes lexical units expressing customs and traditions in the Uzbek and English languages, and studies their national and cultural

characteristics. The reflection of the culture of different peoples in these units emphasizes the interdependence between language and culture. The article examines how lexical units of customs, rituals, and traditions in the Uzbek and English languages are expressed through linguistic means and their semantic structure. It also examines the difficulties that arise during the translation and cultural adaptation of these lexical units. The thesis aims to shed light on the contribution of customs and cultures to mutual understanding and intercultural dialogue.

Keywords: Uzbek language, English language, customs, national-cultural features, lexical units, translation, intercultural communication, semantics.

Аннотация: В данной статье анализируются лексические единицы, выражающие обычаи и традиции в узбекском и английском языках, изучаются их национально-культурные особенности. Тот факт, что эти единицы отражают культуру разных народов, подчеркивает взаимозависимость языка и культуры. Изучение национально-культурных особенностей лексических единиц, выражающих обычаи в узбекском и английском языках, является проблемой, находящейся на стыке лингвистики и культурологии. Различные исторические, культурные и социальные условия обоих народов существенно повлияли как на их обычаи, так и на языковые единицы, выражающие их. Сравнивая эти лексические единицы, можно выявить сходства и различия между различными культурами и языками, а также углубить межкультурную коммуникацию. Целью данного исследования является выявление национально-культурного содержания лексических единиц, выражающих обычаи в узбекском и английском языках, посредством лингвистического анализа. В этом процессе тщательно изучаются семантическая структура этих лексических единиц, их интерпретация при переводе и их роль в межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: узбекский язык, английский язык, обычаи,

национально-культурные особенности, лексические единицы, перевод, межкультурная коммуникация, семантика.

Kirish.

Har bir xalqning urf-odatlari, marosimlari va an'analari ularning milliy-madaniy merosi va hayot tarzi haqida boy ma'lumotlar beradi. Ushbu urf-odatlarni aks ettiruvchi til birliklari, ya'ni leksik elementlar, xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarashining ifodasi sifatida o'ziga xos ahamiyatga ega. Xalq madaniyatining aksariyat qismi til orqali avloddan avlodga o'tadi va shu sababli tilni o'rganish nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniy nuqtai nazardan ham muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbek va ingliz tillaridagi urf-odatlarni ifodalovchi leksik birliklar filologik jihatdan tilning madaniyat bilan bog'liqligi, til birliklarining semantik va pragmatik xususiyatlari, shuningdek, madaniy hodisalarni ifodalashdagi o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi [1]. Ushbu leksik birliklar tahlil qilinarkan, quyidagi filologik xususiyatlarga e'tibor qaratish zarur:

Semantik tarkib: Har bir xalqning urf-odatlarini ifodalovchi leksik birliklar turli semantik komponentlarga ega. Bu birliklar xalqning milliy qadriyatlari, dunyoqarashi va turmush tarzi bilan chambarchas bog'langan. Masalan, o'zbek tilidagi «to'y», «sunnat to'yi», «mehmondo'stlik» kabi so'zlar milliy o'ziga xoslikni aks ettirsa, ingliz tilida «wedding», «Thanksgiving», «hospitality» kabi so'zlar G'arb madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilida nikoh to'yi bolalik, beg'ubor hayot va ota uyi bilan xayrlashish leksemalar bilan bog'liq. Ammo ingliz tilida bu kabi holatlar uchramaydi, sababi kelin uyiga xohlagan paytida boradi, kelin va kuyov alohida yashaydi [3]. Shuningdek, ba'zi leksemalar masalan, nozik kelin/thin bride, kamtar kelin/modest bride, chaqqon kelin/handy bride yoki mard kuyov/brave groom kabilar kelin va kuyovning xarakteri yoki tashqi ko'rinishini ifodalaydi. **Tahlil va natijalar.** Ushbu misollarda mubolag'a mavjudligi aniq.

Ma'lumki, mubolag'aning vazifasi ma'lum bir tasvirdagi ranglarni ataylab oshirib yuborish va qalinlashtirish orqali taassurotni kuchaytirishdan iborat. Notiq yaxshi niyat bilan qo'lida qadah ushlab, ajoyib qo'shiqlar, ya'ni maqto'vni ifodalovchi tantanali qo'shiqlar yoki nutqlarni ijro etadi. Kelin va kuyovga bag'ishlangan matnlarda kundalik hayotni[9], bir-birlari bilan, har ikki tomonning qarindoshlari bilan munosabatlarni tashkil qilish bo'yicha o'ziga xos ko'rsatmalar, maslahatlar, tavsiyalar mavjud. Masalan, "Kelinjonim, go'zalligingizdan olam munavvar bo'lsin, hayot yo'lida [4].

Xulosa va takliflar. Hozirgi kunda, o'zbek va ingliz xalqida ritualga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qolmoqda, chunki u, masalan, nikoh to'yi haqida gapirsak, ko'p juftliklar orzu qiladigan izchillik va madaniyat tuyg'usini ta'minlaydi[5]. To'y marosimi oilaviy siyosat va madaniy oqibatlar haqida gap irish mumkin bo'lsa-da, madaniyatni kesib o'tadigan bir nechta marosimlar ham mavjud. Govardning (2006) tadqiqotida Brides, Inc. tadbirkorlar va turli sohalar Buyuk Britaniyada to'y madaniyati hukmronligini yaratishga yordam beradi va "hayotning eng muhim, samimiy daqiqalaridan birini o'zgartirgan to'y marosimlar rivojlanishiga hissa qo'shadi[6]. Yuqoridagi maqollardan ko'rinib turibdiki, nikoh to'yi o'zbek xalqida ham, ingliz xalqida ham muhim ahamiyat kasb etadi. E'tiborli jihat shundaki, o'zbek xalq maqollarida to'y marosimiga va milliy qadriyatlarga urg'u berilsa, ingliz maqollarida asosan to'y muhabbat, shuningdek, ma'suliyatni bildiruvchi konsept sifatida ifodalanadi. Shuningdek, o'zbek maqollaridagi ma'no kelin –kuyovga emas, ko'proq to'y marosimi atrofidagi kishilarga, xalqqa yo'naltirilgan[7]. Ingliz maqollarida esa aksincha, maqollardagi yashirin dav'at oila qurayotgan yoshlarga qaratilgan. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek xalqi to'y marosimiga oid maqollarda an'analarga, milliy urf –odatlarga e'tibor va hurmat ifodalansa, ingliz xalqida asosan ma'no to'g'ridan to'g'ri to'y egalariga qaratilgani yaqqol namoyon

bo`ladi. Bu ham Sharq va G`arbgacha xos bo`lgan o`ziga xoslik va mentalitet tushunchalari bilan bevosita bog`liq.

Foydalanilgan adabiyot:

- [1] Ashirov A. (2007). O`zbek xalqining qadimiy etiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 155 b.
- [2] Ashirov A. (2007). O`zbek xalqining qadimiy etiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 28 b.
- [3] Asqarov A. (2007). O`zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 273 b.
- [4] Аширов А. (2008). Древние религиозные верования в традиционном быту узбекского народа (по материалам Ферганской долины) Этнология. автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 33 с.
- [5] Валиева М.(2022). Лингвокультурология как особая научная дисциплина. “Экономика и социум” №5(96)-1, с 346. www.iupr.ru
- [6] Джурабаев А.(1971). Названия свадебных церемоний в узбекском языке (На материалах андижанской группы говоров). Дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, с 9.